

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligining
2024- yil 30- aprel dagi
84- sonli buyrug'iga
ilova

**Natura holida asosiy oziq-ovqat resurslarining
yillik balansini tuzish bo'yicha
Uslubiy nizom**

Natura holida asosiy oziq-ovqat resurslarining yillik balansini tuzish bo'yicha Uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) natura holida asosiy oziq-ovqat resurslarining yillik balansini ishlab chiqish yo'li bilan oziq-ovqat resurslaridan foydalanish to'g'risidagi axborotlarning shakllanish mexanizmini belgilaydi.

Uslubiy nizomda, respublika bo'yicha barcha toifadagi xo'jaliklarda yilda bir marta yillik yakuniy ma'lumotlar asosida asosiy oziq-ovqat resurslari balansini (keyingi o'rinlarda balans deb ataladi) natura holida tuzish bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish ko'zda tutiladi.

Uslubiy nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model- GSBPM) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Kuzatuvlarni o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni va "Statistika dasturi" qonuniy asos bo'lib hisoblanadi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Uslubiy nizom GSBPMning tahlil qilish bosqichi doirasida dastlabki materiallarni tayyorlash, validatsiya qilish, izohlar va tushuntirishlar tayyorlash va tahliliy ishlarni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

2. **Asosiy oziq-ovqat resurslari balans** – asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlari resurslarining kelib tushish manbalari va ularning foydalanish yo'nalishlari bo'yicha balanslashtirilgan ma'lumotlar tizimini o'zida ifodalaydi.

Balanslar, mahsulotlar ishlab chiqarilgan vaqtdan to ularning oxirgi foydalanilishigacha bo'lgan harakatini ifodalab, joriy tahlillarni amalga oshirishga

va oziq-ovqat bozorlaridagi vaziyatning rivojlanishini prognozlashtirishga, importga bo'lgan talabni baholashga, mamlakatning o'z-o'zini ta'minlashi darajasini hisoblashga, oziq-ovqat mahsulotlarining aholi tomonidan shaxsiy iste'moli fondini aniqlashga va asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining aholi jon boshiga o'rtacha iste'moli darajasini hisoblashga imkon yaratadi. Respublika oziq-ovqat xavfsizligining strategik maqsadi mamlakat aholisini xavfsiz va sifatli qishloq xo'jaligi va baliq mahsulotlari, xom-ashyo va oziq-ovqat bilan ta'minlash hisoblanadi.

3. Balanslar Statistika agentligi tomonidan kalendar yil uchun natura holida – don, kartoshka, sabzavotlar, oziqbop poliz, mevalar va rezavorlar, uzum, go'sht, sut, tuxum, asal, baliq bo'yicha tuziladi.

4. Mahsulot turlari bo'yicha tuziladigan balanslar, mahsulotlar xom-ashyosi bo'yicha, shuningdek ularni qayta ishlashdan olingan mahsulotlarni asosiy (dastlabki) turdagi mahsulotlarga aylantirilgan holdagi mahsulotlar bo'yicha ma'lumotlarni o'zida mujassam etadi.

5. Balanslarni tuzishda statistika kuzatuvlari shakllari ma'lumotlaridan, shuningdek sanoat ishlab chiqarish statistikasi, narx, ijtimoiy soha, demografik va bojxona statistikasi ma'lumotlaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, oziq-ovqat balansini shakllantirishda ekspert baholash va iqtisodiy hisoblashlar ham qo'llaniladi.

6. **Balanslarning resurs qismi** - tushumlarning hajmi – mamlakatda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari, ularning importi, hisobot davri boshiga mavjud bo'lgan zahiralar miqdoridan jamlanadi.

7. **Balanslarning taqsimot qismi** – resurslardan foydalanish, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining eksporti, ishlab chiqarish iste'moli (qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari tomonidan urug'lik, (inkubatsiya uchun tuxumlar) mollar va parrandalar ozuqasi uchun sarflangani)), nooziq-ovqat maqsadlarida qayta ishlash, yo'qotishlar, aholining shaxsiy iste'moli va hisobot davri oxiriga mavjud bo'lgan zahiralar miqdoridan jamlanadi.

8. Balanslarning shartli tasviri (sxemasi) quyidagi umumiy ko'rinishga ega:

$$(Z_b + Ich + I = JR) = (IchI + NOQ + E + Y + Z_o + ShIF)$$

Resurslar:

1. Yil boshiga mavjud zahira (Z_b)
2. Yillik ishlab chiqarish (Ich)
3. Import (I)
4. Jami resurslar (JR)

Resurslardan foydalanish:

5. Qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarish iste'moli (*IchI*)
6. Nooziq-ovqat maqsadlarida qayta ishlash (*NOQ*)
7. Eksport (*E*)
8. Yo'qotishlar (*Y*)
9. Yil oxiriga mavjud zaxira (*Z_o*)
10. Aholi tomonidan shaxsiy iste'mol fondi (*ShIF*).

$$ShIF = 4 - 5 - 6 - 7 - 8 - 9.$$

9. Oziq-ovqat mahsulotlarining aholi tomonidan shaxsiy iste'mol fondi balanslarning barcha kirim qismlari bilan mahsulotlarning nooziq-ovqat maqsadlarida foydalanilgan qismlari orasidagi farq sifatida hisoblanadi va aholi jon boshiga iste'mol qilingan oziq-ovqat mahsulotlarini baholash uchun foydalaniladi.

2-bob. Balanslarning ayrim qismlari shakllanishi

10. Balanslarni tuzish dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari uchun yagona sxema (1-ilova) bo'yicha amalga oshiriladi. Balanslarning resurs va taqsimot qismlari hisoblash usuli va axborotlar ta'minoti mahsulotlarning muayyan turlariga xos xususiyatlarga ega bo'lgan alohida turlari asosida tuziladi.

11. **Balanslarning resurs qismiga** respublikada yil boshiga mavjud bo'lgan zaxira, respublikadagi yillik ishlab chiqarish va respublikaga boshqa davlatlardan import bo'lgan mahsulotlar hajmlari qo'shiladi.

12. **Mahsulotlar zaxiralari** - Respublikada resurslar va asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli ko'lami va darajasiga ishlab chiqarish va foydalanish muhitidagi zaxiralarning o'sishi yoki kamayishi ta'sir ko'rsatadi.

Zaxiralar ishlab chiqarish va oxirgi iste'mol oralig'idagi barcha darajalarda hisobga olinadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

yil boshiga zaxiralar - hisobot yilining birinchi kuniga mavjud bo'lgan va o'tgan hisobot yilidan o'tib kelayotgan, foydalanilmasdan turgan zaxiralarni o'zida ifodalaydi;

yil oxiriga zaxiralar - hisobot yilining oxirgi kuniga mavjud bo'lgan zaxiralar.

Mazkur qismda mahsulotlar zaxirasi natura va qayta ishlangan holda hisobot davrida ularning saqlanish joyidan qat'i nazar hisobga olinadi.

13. **Zaxiralarning o'zgarishi** – yil oxiriga va yil boshiga bo'lgan zaxiralar hajmlarining farqiga tenglashtiriladi. Zaxiralarning o'zgarish belgisi manfiy (hisobot davri davomida zaxiralarning kamayishi) yoki musbat (ko'payishi) bo'lishi mumkin va bular balansning resurslar qismida qarama-qarshi belgi bilan ifodalanadi.

14. **Mahsulotlar ishlab chiqarish** – oziq-ovqat resurslari shakllanishining asosiy manbalari mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlari hisoblanadi.

Balanslar barcha qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari, xususan, fermer xo‘jaliklari, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari to‘g‘risidagi axborotlarni o‘z ichiga oladi.

Balanslarning “mahsulotlar ishlab chiqarish” qismini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bo‘yicha to‘ldirishda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish to‘g‘risidagi yillik statistika kuzatuvlari shakllari ma‘lumotlari asosida barcha toifadagi xo‘jaliklardagi yillik ishlab chiqarish hajmlari aniqlanadi.

Yillik ishlab chiqarish hajmlariga ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarilgan, ishlab chiqaruvchilar tomonidan “shaxsiy iste‘mol” uchun foydalanilganini qo‘shgan holdagi barcha mahsulotlar qo‘shiladi. Ishlab chiqarish jarayoni doirasidagi, masalan, hosilni yig‘ib olish paytidagi yo‘qotishlar ishlab chiqarish hajmlariga qo‘shilmaydi.

15. **Don ekinlarini ishlab chiqarish** – ishlov berilgan (tozalangan va quritilgan)dan keyingi vaznda ko‘rsatiladi va barcha boshqoli don ekinlarini, don uchun makkajo‘xori, sholi, barcha dukkakli don ekinlarini va boshqa don ekinlarini o‘z ichiga oladi. Ishlab chiqarilgan fizik vazndagi don ekinlari hajmlari har bir don ekinlari turlari bo‘yicha alohida belgilangan koeffitsiyentlar orqali ishlov berilgandan keyingi vaznga aylantiriladi (2 - ilova).

16. **Kartoshka yetishtirish** – fizik vaznda ko‘rsatiladi va barcha kartoshka turlarini, urug‘lik, oziqbop va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

17. **Sabzavotlar ishlab chiqarish** – ochiq va yopiq yerlarda yetishtirilgan barcha sabzavotlarni o‘z ichiga oladi.

18. **Oziqbop poliz ishlab chiqarish** – tarvuz va qovunlarning yalpi hosilini o‘z ichiga oladi.

19. **Mevalar va rezavorlar ishlab chiqarish** – urug‘lilar, danaklilar, yong‘oq mevalilar, suptropik mevalar, rezavor mevalarning barcha turlari, sitrus mevalar yalpi hosilini o‘z ichiga oladi.

20. **Uzum ishlab chiqarish** – uzumning barcha, texnik va oziqbop navlari yalpi hosilini o‘z ichiga oladi.

21. **Go‘sht ishlab chiqarish** (so‘yish uchun yetishtirilgan mollar va parrandalar) – go‘sht uchun barcha sotishlarni, shuningdek, o‘z xo‘jaligida so‘yilgan va iste‘mol qilingan yirik shoxli qoramollar, qo‘y va echkilar, cho‘chqalar, otlar, tuyalar, quyonlar va parrandalarni o‘z ichiga oladi. Kelgusida ko‘paytirish uchun sotilgan yosh mollar va parrandalar so‘yish uchun sotish

hajmiga qo'shilmaydi. Go'sht ishlab chiqarish hajmi so'yilgan vaznda ko'rsatiladi, ya'ni tirik vaznda ishlab chiqarilgan go'sht hajmlari har bir qishloq xo'jaligi hayvonlari

va parrandalarining turlari bo'yicha belgilangan koeffitsiyentlar orqali alohida so'yilgan vaznga aylantiriladi (3- ilova).

22. **Sut sog'ib olish** – sigirlardan, ona qo'ylardan, ona echkilardan va ona tuyalardan sog'ib olingan sutning barcha hajmlarini, umumiy sog'ib olingan sut hajmidan yosh mollarga ichirish uchun sarflangan sut miqdorini qo'shgan holda o'z ichiga oladi. Onasi bilan birga, onasini emib saqlanadigan usulda boqiladigan yosh mollar emgan sut yalpi ishlab chiqarishga qo'shilmaydi.

23. **Tuxum olish** – kurk tovuqlar yordamida va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlarni qo'shgan holda, barcha turdagi parrandalar (tovuq, o'rdak, g'oz, kurka, sesarka, bedana, tuyaqush va boshqalar)dan olingan tuxum miqdorlarini o'z ichiga oladi.

24. **Asal ishlab chiqarish** – asalarilar tomonidan yig'ilgan, shuningdek, uyalardan chiqarib olingan, qishki-bahorgi davrda asalarilar oziqlanishi uchun uyalarda qoldirilgan asal miqdorlarini o'z ichiga oladi.

25. **Baliqchilik mahsulotlari** – tabiiy va sun'iy suv havzalaridan oziq-ovqat maqsadlarida ushlangan baliqlar vaznlari bilan aniqlanadi. Baliq ovlash (ov mahsuloti) suv muhitidan chiqarib olingan, lekin hali sovtutish va boshqa usul yordamida saqlash va qayta ishlashga yo'naltirilmagan barcha turdagi baliqlar hisoblanadi.

26. **Import** – yil davomida xorijda ishlab chiqarilgan mos ravishdagi oziq-ovqat mahsulotlarini mamlakatga olib kirish bo'yicha amalga oshirilgan barcha operatsiyalarni qamrab oladi. Qayta ishlangan holda import qilingan sanoat mahsulotlari balansga u yoki bu mahsulotlarni xomashyo, ya'ni natura holiga aylantirilgandan keyin qo'shiladi (4 - ilova).

27. **Balanslarning taqsimot qismi** – ishlab chiqarish iste'moli, nooziq-ovqat maqsadlarida qayta ishlash, yo'qotishlar, respublikadan boshqa davlatlarga eksport, aholining shaxsiy iste'moli, yil oxiriga zaxiralarni o'z ichiga oladi.

28. **Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish iste'moli** – qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari tomonidan ularning xo'jalik faoliyati jarayonida foydalanilgan (urug'likka, ozuqaga, inkubatsiya hamda kurk parrandalar uchun sarflangan tuxumlar va boshqa nooziqovqat maqsadlaridagi sarf-xarajatlar) oziq-ovqat resurslari qismini ifodalaydi.

29. **Urug'lik** – hisobot yilida ekish uchun foydalanilgan miqdor. Urug'lik sarfi mos qishloq xo'jaligi ekinlarining ekin maydonlari tarkibi va urug'lik ekish me'yorlari to'g'risidagi ma'lumotlar asosida aniqlanadi (5- ilova).

Tayyor dehqonchilik mahsulotlarining urug'lik uchun sarflangan qismi 1 gektar maydonga urug'lik ekish me'yorini umumiy ekin maydoniga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

30. **Ozuqa** – qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalari uchun to'g'ridan-to'g'ri ozuqa sifatida foydalanilgan mahsulotlar hajmlari. Bu toifaga mos mahsulotlar yoki ularning qayta ishlangan mahsulotlari, balansda alohida ko'rsatilmagan va qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalari tomonidan hisobot yilida ozuqa sifatida iste'mol qilingan hajmlari kiritiladi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmidan mollar va parrandalar ozuqasi uchun foydalanilgan miqdorlari o'tgan yillarda balanslarni tuzish uchun qo'llanilgan o'rtacha koeffitsiyentlar asosida aniqlanadi (6 - ilova).

31. **Inkubatsiya tuxumlari** – bosh sonlarni yangilash uchun foydalanilgan tuxumlar miqdori. Inkubatsiya uchun sarflangan tuxumlar miqdori hisobot yilida olingan nasllar (jo'jalar) bosh sonini 1,4 koeffitsiyentiga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

32. **Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini nooziq-ovqat maqsadlarida qayta ishlash** – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini nooziq - ovqat maqsadlarida qayta ishlash hajmlari o'tgan yillardagi balanslar bo'yicha ularning resurslardagi solishtirma vazni orqali hisoblash yo'li bilan aniqlanadi.

33. **Eksport** – hisobot yilida mos ravishdagi oziq-ovqat mahsulotlarini mamlakat tashqarisiga olib chiqish bo'yicha amalga oshirilgan barcha operatsiyalarni qamrab oladi. Qayta ishlangan holda eksport qilingan sanoat mahsulotlari balansga u yoki bu mahsulotlarni xomashyo, ya'ni natura holiga aylantirilgandan keyin qo'shiladi (4- ilova).

34. **Yo'qotishlar** – balanslarda aholi shaxsiy iste'moli nafaqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlariga, balki ushbu mahsulotlarning iste'molgacha olib boradigan barcha bosqichlaridagi yo'qotishlar darajasiga ham bog'liq. Mahsulotlarning turlari bo'yicha yo'qotishlar miqdorlari ishlab chiqarishning umumiy hajmiga nisbatan foizda aniqlanadi va bu foizlar mos mahsulotlar bo'yicha mahsulotlar yo'qotishlarini aniqlash uchun foydalaniladi (7- ilova).

3-bob. Oziq-ovqat mahsulotlarining aholi tomonidan shaxsiy iste'moli fondini aniqlash

35. Aholi tomonidan shaxsiy iste'mol fondi, balanslarning barcha kirim qismlari va mahsulotlarning nooziq-ovqat maqsadlarida foydalanilgan qismlari orasidagi farqi sifatida hisoblanadi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining aholi tomonidan shaxsiy iste'mol fondi barcha mahsulotlar resurslaridan hisobot yilida oziq-ovqat uchun foydalanilmagan qismini chiqarib tashlash orqali aniqlanadi, ya'ni, jami resurslar – ishlab chiqarish iste'moli – nooziq-ovqat maqsadlarida qayta ishlash – mahsulotlarni ishlab chiqarishdan to mahsulotlarni sotishgacha bo'lgan bosqichlardagi yo'qotishlar – eksport va mahsulotlarni mamlakat tashqarisiga olib chiqish – yil oxiriga mavjud zaxiralar.

Aholi shaxsiy iste'mol fondi va doimiy aholining yillik o'rtacha soni orqali aholi jon boshiga o'rtacha to'g'ri keladigan asosiy oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli miqdori aniqlanadi.

Aholi tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari shaxsiy iste'mol fondi natura holida don, kartoshka, sabzavotlar, oziqbop poliz, mevalar va rezavorlar, uzum, go'sht, sut, tuxum, asal, baliq bo'yicha shakllantiriladi.

Aholi shaxsiy iste'mol fondi tarkibiga kirgan barcha qayta ishlangan qishloq xo'jaligi mahsulotlari koeffitsiyentlar tizimi yordamida dastlabki mahsulot holiga qayta hisoblanadi (4-ilova).

Quyida asosiy oziq-ovqat mahsulotlari aholi shaxsiy iste'mol fondining tarkibi keltirilgan:

36. Don iste'mol fondi – qayta ishlangan don mahsulotlarisiz, don va dukkakli don ekinlarini o'z ichiga oladi. Don shaxsiy iste'moli fondi tarkibiga aholi tomonidan faqat xom holida iste'mol qilingan donlar qo'shiladi va qayta ishlangan holida iste'mol qilingan donlar (un, yorma, makaron va un konditer mahsulotlari va boshqalar) dastlabki mahsulot holiga qayta hisoblanib, don iste'mol fondiga qo'shilmaydi.

37. Kartoshka iste'mol fondi – yangi holidagi kartoshkalarni va koeffitsiyentlar orqali yangi kartoshkaga aylantirilgan yarim tayyor mahsulotlarni (kartoshka krekerlari, parchalangan kartoshka, kartoshka oqshog'i (quruq bo'tqa)), tilimlangan qarsilloq kartoshka va somonsimon kartoshka, tezkor muzlatilgan kartoshka mahsulotlari, quritilgan kartoshka, kartoshka kraxmalini o'z ichiga oladi.

38. Sabzavot va poliz ekinlari iste'moli fondi – yangi sabzavotlar va poliz ekinlarini, yangi holiga aylantirilgan sabzavot konservalarini, sharbatlarini, pomidor mahsulotlarini, quruq va tezkor muzlatilgan sabzavotlarni o'z ichiga

oladi. Achitilgan, marinadlangan, tuzlangan sabzavotlar va poliz mahsulotlari asosiy mahsulot turiga aylantirilmasdan iste'mol fondiga qo'shiladi.

39. Mevalar va rezavorlar, uzum iste'mol fondi – yangi holidagi mevalar (urug'lilar, danaklilar, yong'oq mevalilar, subtropik mevalar), rezavor mevalar, sitrus mevalar va uzumni va yangi holiga aylantirilgan qayta ishlangan mahsulotlar (mevalar va rezavorlar konservalari, murabbo, shinni, qiyom, quruq mevalar, mevalar va uzum sharbatlari, tezkor muzlatilgan mevalar va rezavorlar)ni o'z ichiga oladi.

40. Go'sht va go'sht mahsulotlari iste'mol fondi – har xil turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlarining go'shtlarini (qoramol, qo'y, echki, cho'chqa, ot, tuya, quyon, parrandalar va boshqalar), mos koeffitsiyentlar (4- **ilova**) orqali go'shtga aylantirilgan go'sht mahsulotlarini (kolbasa mahsulotlari, go'sht va go'sht-o'simlik konservalari, kotletlar, muzlatilgan go'sht taomlari va boshqalar), I toifadagi sub mahsulotlar (kalla-pocha, ichak-chovoq), II toifadagi sub mahsulotlar (qorin, oshqozon, o'pka, kalla, taloq, yelin va boshqalar), xom yog'ga aylantirib hisoblangan (4 - **ilova**) oziq-ovqat sifatida iste'mol qilinadigan hayvon yog'larini o'z ichiga oladi.

41. Sut va sut mahsulotlari iste'mol fondi – fizik vazndagi barcha turdagi sutlarni va bazis yog'lilikdagi sutga aylantirib, qayta hisoblangan sut mahsulotlari (hayvon yog'i, yog'li pishloq, brinza, yumshoq pishloq, sut konservalari, quruq sut mahsulotlari, tabiiy yog'lilikdagi sut mahsulotlari (tabiiy yog'lilikdagi sut, achitilgan sut mahsulotlari, qaymoq, smetana, pishloq va pishloq massalari, tvorog, tvorog yarim tayyor mahsulotlari, muzqaymoq va boshqalar)ni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi uchun sutning bazis yog'liligi 3,6% ni tashkil etadi.

Sut mahsulotlarini bazis yog'lilikdagi sutga aylantirish quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi (qaymoq misolida):

$$S_{byo} = Q \times Y_{oq} \div Y_{osb}$$

bu yerda:

S_{byo} – bazis yog'lilikdagi sut miqdori, (kg, tonna), Q – qaymoq miqdori (kg, tonna), Y_{oq} – qaymoqning haqiqiy yog'liligi, Y_{osb} – sutning bazis yog'liligi (3,6%).

42. Tuxum va tuxum mahsulotlari iste'mol fondi – barcha turdagi qishloq xo'jaligi parrandalaridan olingan tuxumlarni, shuningdek, tuxumga aylantirib hisoblangan tuxum mahsulotlari (tuxum kukuni, melanj va boshqalar)ni o'z ichiga oladi.

43. **Asal iste'mol fondi** – natura holdagi barcha asal navlari miqdorlarini, asalarilar tomonidan yig'ilgan, uyalardan chiqarib olingan, shuningdek qishki-bahorgi davrda asalarilar oziqlanishi uchun uyalarda qoldirilgan asal miqdorlarini o'z ichiga oladi.

44. **Baliq va baliq mahsulotlari iste'mol fondi** – tirik va asosiy mahsulotga aylantirilgan holdagi sovutilgan, muzlatilgan, tuzlangan, xushbo'y ta'm berilgan va marinadlangan, quritilgan, dudlangan, qoqlangan, suyaksiz baliq go'shti (file), osetr, losos va boshqa baliqlar uvildirig'i, baliq yarim tayyor mahsulotlari, dengiz mahsulotlari, mayda qisqichbaqalar (krevetki), kalmarlar, qisqichbaqalar va boshqalar, boshqa baliq va dengiz mahsulotlari, baliq konservalarini o'z ichiga oladi.

45. Bundan tashqari, oziq-ovqat resurslari balansi ma'lumotlari aholi jon boshiga oziq-ovqat resurslarining muayyan turlarini ishlab chiqarish hajmlarini va aholi jon boshiga shaxsiy iste'mol hajmlarini aks ettiradigan jadallik ko'rsatkichlarini hisoblash imkonini beradi. Ushbu ko'rsatkichlar quyidagicha hisoblanadi:

$$AJBI = Ich \div DAO'S$$

$$O'I = ShIF \div AJBI$$

Bu yerda:

AJBI - aholi jon boshiga ishlab chiqarish (bir yilda kilogramm);

Ich – ishlab chiqarish;

DAO'S – doimiy aholining yillik o'rtacha soni;

O'I – aholi jon boshiga o'rtacha oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli (bir yilda kilogramm);

ShIF – aholi shaxsiy iste'mol fondi (iste'mol fondi).

Aholi jon boshiga shaxsiy iste'mol hajmini hisoblashda qayta ishlanmagan holdagi shaxsiy iste'mol fondi ma'lumotlaridan foydalaniladi.

4-bob. Asosiy oziq-ovqat resurslari balansini pul ko'rinishida tuzish

46. Natura holda oziq-ovqat resurslari balansini tuzish bilan bir qatorda pul ko'rinishida ham balans tuziladi (1 - ilova).

Mahsulotlarning umumiy qiymatini aniqlash uchun mahsulotlarning umumiy hajmi mos mahsulotlarning o'rtacha narxiga ko'paytiriladi.

Mahsulotlarning umumiy qiymatini aniqlash quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi (**jami don va dukkakli don ekinlari misolida**):

$$DUQ = DUH \times DO'N$$

bu yerda:

DUQ – don va dukkakli don ekinlarining umumiy qiymati (so‘m, ming so‘m, mln. so‘m);

DUH – don va dukkakli don ekinlarining umumiy hajmi (kg, sentner, tonna, ming tonna);

DO‘N – don va dukkakli don ekinlari hajm birligining o‘rtacha narxi (so‘m, ming so‘m, mln. so‘m).

Don, kartoshka, sabzavotlar, poliz ekinlari, mevalar va rezavorlar, uzum, go‘sht, sut, tuxum, asal, baliq mahsulotlarining umumiy qiymatini aniqlashda ham yuqoridagi formuladan foydalaniladi.

5-bob. Mamlakatning asosiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan o‘z-o‘zini ta‘minlash darajasini aniqlash

47. Oziq-ovqat resurslari balansi ma‘lumotlariga asosan mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini tavsiflovchi ko‘rsatkich – asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan o‘z-o‘zini ta‘minlash darajasi aniqlanadi.

Asosiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan o‘z-o‘zini ta‘minlash darajasi o‘zida ishlab chiqarilgan mahsulotlar mamlakatning barcha ehtiyojlarini qay darajada qondira olishini aks ettiradi yoki “mamlakatning ichki ehtiyoji” deb ataluvchi ko‘rsatkichni ifodalaydi. O‘z-o‘zini ta‘minlash darajasi Respublika bo‘yicha aniqlanadi.

Mamlakatning o‘z-o‘zini ta‘minlash darajasi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining alohida turlari bo‘yicha tegishli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari turlarining mamlakatdagi iste‘moliga foizdagi nisbati sifatida aniqlanadi. Xuddi shunday o‘z-o‘zini ta‘minlash darajasi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining alohida turlari bo‘yicha aniqlanadi.

Umumiy ko‘rinishda o‘z-o‘zini ta‘minlash koeffitsiyentini (*O‘TK*) hisoblash algoritmi quyidagi formula bilan ifodalanishi mumkin:

$$O'TK = \text{ishlab chiqarish hajmi} \div \text{ichki iste'mol} \times 100\%.$$

48. **Ichki iste‘mol** – ishlab chiqarish iste‘moli, aholining shaxsiy iste‘moli (iste‘mol fondi), mahsulotlarni yo‘qotish, nooziq-ovqat maqsadlarida qayta ishlash ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi.

49. **Ishlab chiqarish iste‘moli** – qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari tomonidan ichki xo‘jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan mahsulotlarni, urug‘lik, mollar va parrandalar uchun ozuqa, inkubatsiya va kurk parrandalar uchun tuxumlarni ifodalaydi.

50. **Aholi shaxsiy iste‘mol fondi** – mamlakat aholisi iste‘moli uchun yo‘naltirilgan mahsulotlar hajmini o‘z ichiga oladi.

51. **Nooziq-ovqat maqsadlarida qayta ishlash** – korxona va tashkilotlar tomonidan medbiopreparatlar, ilmiy-tadqiqot va boshqa maqsadlar uchun foydalanilgan mahsulotlar hajmini o‘z ichiga oladi.

6-bob. Axborot ta’minoti

52. Balanslarni tuzish uchun zarur bo‘ladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmlari bo‘yicha axborotlar qishloq xo‘jaligi statistikasi bo‘yicha statistika hisobotlari shakllari asosida shakllantiriladi (8- ilova).

53. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining importi va eksporti bo‘yicha axborotlar davlat va bojxona tashqi savdo statistikasi ma’lumotlari asosida shakllantiriladi (8- ilova).

54. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining o‘rtacha narxlari bo‘yicha axborotlar narxlar statistikasi bo‘yicha statistika hisobotlari shakllari asosida shakllantiriladi (8- ilova).

55. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekishdagi urug‘lik ekish me’yorlari “Qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishda talab etiladigan mehnat va moddiy resurslar sarfi me’yorlari”, Toshkent – 2016- y. – QXIITI (O‘zR. QSXV, O‘zQXIICHM), 2016. O‘zR QSXV 2016- yil 22- yanvardagi 1/1-sonli qarori bilan ma’qullangan) asosida aniqlanadi.

56. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotishdagi yo‘qotishlar “Ho‘l meva-sabzavot, kartoshka, poliz mahsulotlari va uzumni saqlash, transportda tashish va sotishda tabiiy yo‘qotish normativlari” (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016- yil 15- sentabrda 2824 - son bilan ro‘yxatga olingan, O‘zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo‘jaligi vazirining 2016- yil 24- avgustdagi 28- son buyrug‘i) asosida aniqlanadi.

57. Doimiy aholining yillik o‘rtacha soni to‘g‘risidagi axborotlar aholining joriy hisobi ma’lumotlari asosida shakllantiriladi (8- ilova).

7- bob. Yakuniy qoidalar

58. Mazkur uslubiy nizomni ishlab chiqishda, O‘zbekiston Respublikasining qishloq xo‘jaligi sohasidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlaridan, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO), Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Davlatlararo statistika qo‘mitasi (MDH statistika qo‘mitasi)ning metodologik tavsiyalaridan, shuningdek, MDH davlatlarining tajribalaridan foydalanilgan.

59. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari “Statistik ma’lumotlarni taqdim etishning universal modeli” (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo‘yicha namunaviy uslubiy qo‘llanma”ga muvofiq amalga oshirilgan.

Natura holidi asosiy oziq-ovqat resurslarining yillik
balansini tuzish bo'yicha Uslubiy nizomga
1-ilova

Asosiy oziq-ovqat resurslari balansini tuzish bo'yicha shartli sxema
(2018 yil uchun, barcha toifadagi xo'jaliklar)

	Satr kodi	Don va dukkakli don ekinlari – jami *		
		Miqdori, ming tonna	1 tonnasi narxi, ming so'm	Qiymati, mln. so'm (1 x 2)
A	B	1	2	3
1. Resurslar:	x	x	x	x
2018 yil 1 yanvar holatiga bo'lgan zaxira	101			
Yillik ishlab-chiqarish	102			
Import	103			
Jami resurslar (101 + 102 + 103)	104			
2. Resurslardan foydalanish:	x	x	x	x
Ishlab chiqarish iste'moli – jami (106 + 107 + 108)	105			
shu jumladan:	x	x	x	x
urug'lik uchun	106			
mollar va parrandalarga ozuqa uchun	107			
nooziq-ovqat maqsadlarida qayta ishlash uchun	108			
Eksport	109			
Yo'qotishlar	110			
2019- yil 1- yanvar holatiga bo'lgan zaxira	111			
Shaxsiy iste'mol fondi (104 – 105 – 109 – 110 - 111)	112			
Jami taqsimlandi (105 + 109 + 110 + 111 + 112)	113			
Doimiy aholining o'rtacha yillik soni, ming kishi	114			
Aholi jon boshiga ishlab-chiqarildi, kg (102 / 114 x 1000)	115			
Aholi jon boshiga iste'mol qilindi, kg (112 / 114 x 1000)	116			
O'z-o'zini ta'minlash koeffitsiyenti (O'TK), % (102 / (105 + 110 + 112) x 100)	117			

* shartli sxema boshqa turdagi oziq-ovqat resurslarini hisoblashda ham foydalaniladi

Natura holida asosiy oziq-ovqat resurslarining yillik
balansini tuzish bo'yicha Uslubiy nizomga
2-ilova

**Fizik vazndagi don va dukakkli don ekinlarini ishlov berilgandan
keyingi vaznga o'tkazish taxminiy koeffitsiyentlari**

Don ekinlarining nomlari	Me'yoriy namlik, % da	Me'yoriy ifloslanganlik, % da
Don va dukakkli don ekinlari	19	7
shu jumladan:	x	x
boshqoli don ekinlari	19	8
sholi	19	5
makkajo'xori don uchun	25	8
dukakkli don ekinlari	22	8
boshqa don ekinlari	18	7

Natura holida asosiy oziq-ovqat resurslarining yillik
balansini tuzish bo'yicha Uslubiy nizomga
3-ilova

**Qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalari tirik vaznini
so'yilgan vaznga o'tkazish taxminiy koeffitsiyentlari**

№	Qishloq xo'jaligi hayvonlari turlari	Tirik vazniga nisbatan ulushi, % da
1	Yirik shoxli qoramollar	50 - 66
2	Qo'ylar	65 - 71
3	Echkilar	45 - 55
4	Otlar	47 - 60
5	Tuyalar	47 - 56
6	Quyonglar	47 - 62
7	Cho'chqalar	70 - 85
8	Barcha turdagi parrandalar	75 - 85

Natura holidi asosiy oziq-ovqat resurslarining yillik
balansini tuzish bo'yicha Uslubiy nizomga
4-ilova

**Qayta ishlash mahsulotlarini asosiy tur mahsulotlarga
o'tkazishning taxminiy koeffitsiyentlari**

№	Qayta ishlash mahsulotlari nomlari	Qayta hisoblash koeffitsiyenti
1. Go'sht mahsulotlari		
1	Kolbasa mahsulotlari (o'rtacha koeffitsiyent)	1,37
2	Qaynatilgan kolbasalar, sosiskalar, sardelkalar	1,2
3	Yarim dudlangan kolbasalar	1,7
4	Qaynatilgan – dudlangan kolbasalar	2,0
5	Xom holicha dudlangan kolbasalar	2,5
6	Chuchvaralar	0,55
7	Go'shtli kotletlar	0,75
8	Go'sht-o'simlikli kotletlar	0,5
go'shtli konservalar		
9	Shartli bankadan qayta hisoblash uchun	0,5
10	Vaznidan qayta hisoblash uchun (tonna)	1,4
11	Go'sht-o'simlikli konservalar	0,18
12	Frikadelkalar (yumaloq qiymalar)	1,0
13	Sho'rva uchun to'plamlar, ragu	0,6
14	Dudlangan cho'chqa go'shtlari va tuzlangan yog'lari	1,5
15	Qobiqli dudlama go'shtlar	1,7
16	Parranda go'shtidan bo'lgan tayyor oziq-ovqat mahsulotlari	1,5
17	Yarim tayyor mahsulotlar	1,0
18	Qizdirilgan oziq-ovqat yog'lari	1,4
19	Xom holicha dudlangan va konservalangan cho'chqa go'shti	0,8
20	Lahm go'shtli, qismlarga ajratilgan yarim tayyor	1,6
katta bo'lakli va qadoqlangan yarim tayyor mahsulotlar		
21	Qoramol go'shtidan	1,35
22	Cho'chqa go'shtidan	1,2
23	Natura holidagi qiymalangan go'sht	1,2
24	Sublimatsion usulda quritilgan go'sht	9,7
25	Tezkor muzlatilgan garnirlik yarim tayyor mahsulotlar	0,5
2. Sut mahsulotlari		
26	Qaymoqdan olingan yog' (hayvon yog'i - saryog')	20,3
27	shu jumladan: tuzlanmagan, tuzlangan	23,6
28	havaskor	22,5
29	dehqoncha	20,9
30	buterbrod uchun	17,9
31	Pishloq	8,8
32	Yumshoq pishloq	7,7
33	Sut konservalari	2,5
34	Quruq sut mahsulotlari	7,3

№	Qayta ishlash mahsulotlari nomlari	Qayta hisoblash koeffitsiyenti
35	Muzqaymoq	3,0
36	Ishlov berilgan suyuq sut	0,92
37	Suyuq qaymoq va qaymoq	5,4
38	Tvorog (uy pishlog'i), pishloq massasi	3,86
39	qatiq, yogurt	0,8
40	Margarin mahsulotlari	0,15
3. Tuxum va tuxum mahsulotlari		
41	Melanj	24,0
42	Tuxum	1,0
43	Tuxum kukuni	90,0
4. Qayta ishlangan kartoshka		
44	Kartoshka krekerlari	3,0
45	qarsilloq kartoshka: tilimlangan	3,9
46	plastinkalar	4,2
47	somonsimon	4,2
48	Parchalangan kartoshka oqshog'i (quruq bo'tqa)	8,5
49	Tezkor muzlatilgan kartoshka	1,3
50	Qurtilgan kartoshka	9,0
51	Kraxmal	4,0
5. Qayta ishlangan sabzavotlar va poliz mahsulotlari		
52	Sabzavot konservalari	1,125
53	Pomidor sharbati	1,25
54	Pomidor qaylasi	3,175
55	Ketchup	0,400
56	Pomidor-bo'tqa va pasta	3,25
57	Qurtilgan sabzavotlar	8,0
58	Tezkor muzlatilgan sabzavotlar	1,4
59	Qovun qoqi (qurtilgan)	16,4
6. Qayta ishlangan mevalar va rezavorlar, uzum		
60	Kompotlar	0,75
61	Rezavorlar sharbati	1,75
62	Shinni	0,85
63	Qiyom	0,75
64	Murabbo	1,05
65	Rezavorlar konservalari	1,25
66	Uzum sharbati	1,8
67	Tezkor muzlatilgan mevalar va rezavorlar	1,2
68	Qurtilgan mevalar va rezavorlar	7,5
7. Baliq mahsulotlari		
69	Baliq konservalari	1,31

№	Mahsulot birligi uchun sarflanadigan xom - ashyolarning o'rtacha me'yorlari ro'yxati	1 ming shartli banka uchun, kg
70	Sabzavot konservalari	450
71	Pomidor konservalari	1005
72	sh.j. pomidor-pasta	1300
73	pomidor sharbati	500
74	pomidor qaylasi	1270
75	Rezavorlar konservalari	500
76	sh.j. rezavorlar sharbati	700
77	uzum sharbati	720
78	shinni	340
79	qiyom	300
80	murabbo	420
81	Quritilgan kartoshka	9
82	1 ming shartli banka sharbatdagi uzum	720
83	1 ming shartli shisha shampan vinosidagi uzum	1200
84	1 ming shartli bankadagi quyiltirilgan sut	400

Natura holidagi asosiy oziq-ovqat resurslarining yillik
balansini tuzish bo'yicha Uslubiy nizomga
5-ilova

Qishloq xo'jaligi ekinlarini ekishdagi urug'lik ekish me'yorlari

№	Qishloq xo'jaligi ekinlari	1 gektarga kg
1	Bug'doy (kuzgi va bahorgi)	130 - 250
2	Arpa (kuzgi va bahorgi)	130 - 150
3	Javdar	150 - 200
4	Makkajo'xori don uchun	15 - 30
5	Oq jo'xori	8 - 15
6	Sholi	180 - 200
7	Suli	150 - 220
8	Mosh	20 - 30
9	Loviya	100 - 120
10	No'xat	60 - 80
11	Nut (turk no'xati)	18 - 20
12	Tariq	10 - 15
13	Marjumak	80 - 100
14	Kartoshka	2500 - 3500
15	Sarimsoqpiyoz tishchalari bilan	500 - 1000
16	Piyoz bosh bilan	1200 - 1600

Natura holida asosiy oziq-ovqat resurslarining yillik
balansini tuzish bo'yicha Uslubiy nizomga
6-ilova

**To'g'ridan - to'g'ri qishloq xo'jaligi mollari va parrandalari uchun ozuqa
sifatida hamda ozuqa tayyorlash uchun foydalanilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlarining taxminiy sarflari**

№	Qishloq xo'jaligi ekinlari	Ishlab chiqarilganiga nisbatan, % da
1	Don ekinlari	9,0 – 11,0
2	Kartoshka	0,4 – 0,7
3	Sabzavot ekinlari	0,9 – 1,0
4	Poliz ekinlari	0,9 – 1,3
5	Mevalar va rezavorlar	0,4 – 1,4
6	Uzum	0,4 – 0,8
7	Go'sht	0,3 – 0,6
8	Sut	2,1 – 3,0
9	Tuxum	1,5 – 2,3
10	Asal	15,0 – 25,0
11	Baliq	10 – 15

Natura holida asosiy oziq-ovqat resurslarining yillik
balansini tuzish bo'yicha Uslubiy nizomga
7-ilova

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish, qadoqlash
va sotishdagi taxminiy me'yoriy yo'qotishlar**

№	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari (fizik vaznda)	Ishlab chiqarilganiga nisbatan, % da
1	Don ekinlari	1,2 – 1,5
2	Kartoshka	0,4 – 2,2
3	Sabzavot ekinlari	0,5 – 3,8
4	Poliz ekinlari	0,1 – 1,8
5	Mevalar va rezavorlar	0,4 – 2,1
6	Uzum	0,2 – 0,8
7	Go'sht	0,2 – 0,5
8	Sut	0,1 – 0,2
9	Tuxum	0,2 – 0,5
10	Asal	0,1 – 0,3
11	Baliq	0,2 – 0,5